

BOLA HUQUQLARI

**(MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING
PEDAGOG XODIMLARI UCHUN
USLUBIY QO'LLANMA)**



T49 Bola huquqlari (maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari uchun uslubiy qo'llanma) / Mas'ul muharrir: A.X.Saidov. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2023. – 40 bet.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi Ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengashning 2023-yil 11-avgustdagi 9-sonli bayonnomasiga asosan nashr etishga tavsiya qilingan.

Mas'ul muharrir: akademik, yuridik fanlari doktori, professor **A.X. Saidov**

Tuzuvchilar: y.f.d., professor **M.A. Tillabayev**, y.f.d., dotsent **O'S. Ochilov**,
U.O. Yuldashov

Taqrizchilar: TDYU professori, yuridik fanlar doktori **G. Yuldasheva**
O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Ta'lim sifatini baholash, metodik xizmat ko'rsatish va tarbiyaviy
ishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha boshqarma
bosh mutaxassisi **D.T. Maxmudova**
MTTDMQTMOI «Ijtimoiy fanlar» kafedrası,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori **Sh. Otaqulov**
MTTDMQTMOI «Maktabgacha va musiqiy ta'lim»
kafedrası katta o'qituvchisi **M.M.Rizayeva**

Ushbu uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida Inson huquqlari sohasidagi Milliy ta'lim dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorining 25-bandiga muvofiq tayyorlangan. Qo'llanmada bola huquqlariga doir asosiy tushunchalar hamda bolalarning fundamental huquq va erkinliklari, xususan, bolalarning yashash, shaxsiy daxlsizlik huquqi, ism va fuqarolikka ega bo'lish huquqi, sog'lig'ini saqlashga bo'lgan huquqi, oilaviy munosabatlarga bo'lgan huquqi, ta'lim olish huquqi, dam olish va o'ynash huquqi, mehnat qilish huquqi, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi, xususiy mulkka bo'lgan huquqi, erkin ma'lumot olish, fikr bildirish huquqi, nogironligi bo'lgan bolalar huquqlari yoritilgan. Shuningdek, qo'llanmada bola huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, jumladan Bolalar ombudsmani to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan suratlar majmui internet saytlaridan yig'ilgan, shuningdek "Campasito" qo'llanmasidan foydalanilgan.

Qo'llanma yordamida bolaning fundamental huquq va erkinliklari sohasida umumiy ma'lumotga hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida inson huquqlari sohasidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarga ega bo'lish mumkin. Unda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga inson huquqlari to'g'risidagi dastlabki bilim va ko'nikmalarni o'rgatish bo'yicha usullar, turli mashqlar o'z ifodasini topgan. Ushbu nashr maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari uchun mo'ljallangan.

MUNDARIJA

Kirish	4
I. ASOSIY TUSHUNCHALAR	6
Bola huquqlari	7
Muammolar nimada?	10
II. BOLA HUQUQLARI, ERKINLIK LARI VA MAJBURIYAT LARI	12
Yashash va rivojlanish huquqi	12
O'zining individualligini saqlash huquqi	12
Sog'liqni saqlash huquqi	13
Shaxsiy daxlsizlik, fikr, vijdon va din erkinligi huquqi	13
Erkin fikr bildirish va ma'lumot olish huquqi	14
Oila bilan yashash huquqi	14
Himoyaga bo'lgan huquqi	15
Ta'lim olish huquqi	14
Dam olish va o'ynash huquqi	16
Mehnat qilish huquqi	17
Xususiy mulkka bo'lgan huquqi	17
G'ayriqonuniy ko'chirilishdan himoyalani sh huquqi	17
Bolani ng majburiyat lari:	18
III. INSON HUQUQLARI SOHASIDA TA'LIM	19
Inson huquqlari sohasida ta'lim bo'yicha umumiy ma'lumot	19
Inson huquqlari sohasida ta'lim olish huquqi	20
IV. XALQARO TASHKILOT LAR VA H UJJAT LAR	22
BMT	22
YUNESKO	23
YUNISEF	23
Xalqaro shartnomalar va huquqiy hujjatlar	24
V. BOLALAR OMBUDSMANI	26
VI. BOLALARGA HUQUQLARINI O'RGATISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR	29
Rolli o'yinlar	29
Rasm chizish	29
Videolarni tomosha qilish va muhokama qilish	29
VII. BOLALAR UCHUN QIZIQARLI MASHQLAR	30
Go'zal olam	30
Rasmlar orqali huquqlarni anglash	31
Aqliy mashqlar	33
Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:	39

KIRISH

Yosh avlodning huquq va erkinliklarini himoya qilish va ta'minlash, ularni inson qadri hamda huquq va erkinliklariga hurmat ruhida tarbiyalash suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurishni o'z oldiga maqsad qilgan jamiyatimiz uchun juda ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi aholisining 40 foizini 18 yoshgacha bo'lgan bolalar tashkil qiladi, shundan bog'cha yoshidagi 2,7 mln bolaning qariyb 61 foizi maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ushbu ko'rsatkichni 2023-yilda 75 foizga yetkazish topshirig'i berilgan. Inson huquqlari va erkinliklari sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi bolalarning jismoniy, intellektual va ma'naviy rivojlanishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lib, inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiyani bog'cha yoshidan boshlash zaruriyati kuchayganligi, bola huquqlari ta'limiga bo'lgan talab va ehtiyoj oshganligini ta'kidlash muhim.

Mamlakatimizda bola huquqlari yangi tahrirdagi Konstitutsiya va boshqa qonun hujjatlari bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida, "Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi", deb mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki davridanoq, aniqrog'i 1992-yili BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasini ratifikatsiya qilish bilan jamiyatimizda bola huquqlarini ta'minlash naqadar dolzarb masala ekanligini xalqaro miqyosda e'tirof etdi.

Bugungi kungacha mamlakatimiz 80 ga yaqin inson huquqlariga oid xalqaro hujjatlarga qo'shilgan. Mazkur xalqaro huquqiy hujjatlar orasida bola huquqlariga oid xalqaro normalar muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur xalqaro hujjatlar, o'z navbatida, bola huquqlari bo'yicha milliy qonunchilikni takomillashtirishga yordam bermoqda. Jumladan, 2008-yil 7-yanvarda bu sohada maxsus qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni takomillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 22-iyuldagi farmoni bilan tasdiqlangan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasida inson huquqlari va manfaatlari, jumladan bola huquqlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish, yangi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, huquqiy amaliyotni rivojlantirishga doir amaliy ishlar nazarda tutilgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 2019-yilda Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilinganining 30 yilligi mamlakatimizda keng nishonlandi. 2023-yilda esa Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 75 yilligini nishonlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakat miqyosida inson huquqlari, shu jumladan bola huquqlari sohasida ta'limni rivojlantirish, ta'lim muassasalarida umummilliy darslar o'tkazish, bola huquqlariga oid darslik va qo'llanmalar tayyorlash hamda chop etish, keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish orqali aholining huquqiy madaniyatini yanada oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bola huquqlari bo'yicha o'quv kurslari maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasbiy va oliy ta'lim muassasalari xodimlari malakasini oshirish o'quv dasturlariga kiritilgan.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining pedagog xodimlari uchun tayyorlangan mazkur uslubiy qo'llanma bola huquqlari bo'yicha asosiy tushunchalar hamda bolalarning fundamental huquq va erkinliklarini maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga o'rgatishga mo'ljallangan. Shuningdek, qo'llanmada bola huquqlarini himoya qiluvchi tashkilotlar, jumladan Bolalar ombudsmani to'g'risidagi ma'lumotlar o'rin olgan.

Qo'llanmani tayyorlashda bola huquqlariga oid xorijiy va milliy adabiyotlardan foydalanilgan. Ushbu nashr maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga bola huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya berishga yangicha yondashilgan manba hisoblanib, unda maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga inson huquqlari to'g'risidagi dastlabki bilim va ko'nikmalarni o'rgatish bo'yicha usullar, turli mashqlar o'z ifodasini topgan.

Akmal SAIDOV,

Inson huquqlari bo'yicha

O'zbekiston Respublikasi

Milliy markazi direktori,

akademik, yuridik fanlar doktori, professor

I. ASOSIY TUSHUNCHALAR

Avvalo inson huquqlari nima? Inson huquqlarining qanday toifalari mavjud? Shular haqida qisqacha bilib olsak.

Inson huquqlari universaldir: ular dunyoning istalgan nuqtasida hamma odamlar uchun bir xildir. Siz biron bir davlat fuqarosi bo'lganingiz uchun emas, balki inson ekanligingiz uchun inson huquqlariga egasiz. Demak, bolalar ham xuddi kattalar kabi inson huquqlariga ega.

Inson huquqlari ajralmasdir: inson bo'lishni to'xtish mumkin bo'lmaganidek, inson huquqlarini ham yo'qotib bo'lmaydi.

Inson huquqlari bo'linmasdir: hech kim insondan hech qanday huquqni tortib ololmaydi.

Inson huquqlari bir-biriga bog'liqdir: birgalikda inson huquqlari bir-birini to'ldiruvchi tizimni tashkil qiladi.

Inson huquqlari insonning asosiy ehtiyojlarini aks ettiradi.

Inson huquqlarini himoya qilish – barcha insonlarning insoniy qadr-qimmatini hurmat qilishni talab qilishdir.

Ushbu huquqlarni talab qilishda shaxs boshqalarning huquqlarini hurmat qilish va huquqlari buzilgan odamlarni himoya qilish va qo'llab-quvvatlash majburiyatini ham o'z zimmasiga oladi.

Inson huquqlari – barcha insonlarning millati, irqi, tili, dini, jinsi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar tengligiga asoslangan huquq va erkinliklar majmuidir.

Inson huquqlariga yashash va erkinlik huquqi, qiynoqlardan ozod bo'lish, fikr va so'z erkinligi, mehnat qilish va ta'lim olish huquqi hamda boshqa ko'plab huquqlar kiradi. Bu huquqlarga barcha insonlar hech qanday kamsitishsiz egalik qilishlari kerak.

Bola huquqlari insonning quyidagi huquqlarini o'z ichiga qamrab oladi:

✓ yashash, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;

- ✓ sog‘saqlash huquqi;
- ✓ himoya huquqi;
- ✓ ta’lim olish huquqi;
- ✓ erkin fikr bildirish va ma’lumot olish, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqi;
- ✓ o‘ynash va dam olish huquqi;
- ✓ oila bilan yashash huquqi;
- ✓ bolaning xususiy mulkka bo‘lgan huquqi;
- ✓ bolaning g‘ayriqonuniy ko‘chirilishdan himoyalaniish huquqi;
- ✓ bolaning mehnat qilish huquqi.

BOLA HUQUQLARI

Dunyoda 2,3 milliardga yaqin bolalar (*18 yoshga to‘lmagan shaxs bola hisoblanadi*) bor, bu yer shari aholisining qariyb uchdan bir qismini tashkil qiladi. Har bir bola hech qanday cheklashlarsiz huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi lozim. Bolalar kattalar bilan bir xil huquqlarga ega.

Bola huquqlarining ta’rifi mantiqan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining asosiy g‘oyalaridan kelib chiqadi. Uning alohida moddasi bolalarga bag‘ishlangan. Unda aytilishicha, “Onalik va bolalik alohida g‘amxo‘rlik va yordam olish huquqini beradi”. Shunday qilib, deklaratsiyada e’lon qilingan barcha erkinliklarga bolalarning teng huquqliligini tan olgan holda, xalqaro hamjamiyat bolalarga qo‘shimcha yordam va qo‘llab-quvvatlash zarurligini tan oladi. Ya’ni, bolalar o‘zlarining maxsus ehtiyojlari, shuningdek ekspluatatsiya va suiste’molliklarga nisbatan zaifligi tufayli qo‘shimcha huquqlarga ega.

10 yil davomida (1979-yildan 1989-yilgacha) BMTning Inson huquqlari bo‘yicha komissiyasida ishtirok etgan dunyoning ko‘plab mamlakatlari mutaxassislari bola huquqlari to‘g‘risidagi yangi hujjatning matnini ishlab chiqdilar, unda bolaning jamiyatdagi hayotini barcha jabhalari eng yuqori darajada hisobga olinadi. 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilindi. Shu bilan barcha davlatlar butun jahon miqyosida bolalar ol-

dida tarixiy majburiyat oldilar. Bu tarixda eng ko'p ratifikatsiya qilingan inson huquqlari bo'yicha shartnomaga aylandi va butun jahonda bolalar hayotini yaxshilashga yordam berdi. O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyaga 1992-yil 9-dekabrda qo'shilgan.

Konvensiya barcha bolalarning asosiy insoniy qadr-qimmatini va ularning farovonligi hamda rivojlanishini ta'minlashning muhimligini e'lon qiladi. Konvensiyaga ko'ra, bola huquqlarini himoya qilishning asosiy prinsipi – bola manfaatlarini ustuvorligini tan olishdir. Har bir bola oziq-ovqat, birlamchi tibbiy yordam va rasmiy ta'lim, o'yin va dam olish kabi asosiy ehtiyojlarga ega. Bola g'amxo'r, mehribon hamda yetarli turmush darajasiga ega bo'lgan oilada ulg'ayish huquqiga ega. Bundan tashqari, har bir bola e'tiborsizlik va zo'rvonlikdan himoyalaniş huquqiga ega.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyada quyidagi asosiy qoidalar mustahkamlangan:

- Kamsitilmaslik (2-modda): Barcha huquqlar istisnosiz barcha bolalarga taalluqlidir. Davlat bolalarni har qanday kamsitishlardan himoya qiladi.

- Bola manfaatlarining eng ustuvor ta'minlanishi (3-modda): Bolaning manfaatlarining eng ustuvor ta'minlanishi har bir bolaga tegishli barcha harakatlarda hal qiluvchi omil bo'lishi kerak. Barcha holatlarda bolaning manfaatlarini kattalar (masalan, ota-onalar, o'qituvchilar, vasiylar) manfaatlaridan ustun turadi.

- Yashash va rivojlanish huquqi (6-modda): Bolaning yashash huquqi daxlsizdir va davlat bolaning yashashi va rivojlanishini ta'minlaydi. Bu bolalarni hayotdan mahrum qilish mumkin emasligini anglatadi

- Bolaning fikri va qarashlarini hurmat qilish (12-modda): Bola o'z fikrini bildirish huquqiga ega va bolaga taalluqli bo'lgan har qanday holatda ham bu fikr hisobga olinishi shart.

Mamlakatimizda bolalarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanib, bugungi kunda uning qonunchilik asoslari yaratilgan.

Jumladan, bola huquqlari kafolatlarining qonunchilik asoslari Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Oila kodeksi, "Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida"gi, "Vasiylik va homiylik organlari toʻgʻrisida"gi qonunlar va boshqa bir qator qonun hujjatlarida oʻz aksini topgan boʻlib, ularda bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash; bolaning hayoti va sogʻligʻini, qadr-qimmatini muhofaza qilish; uning kamsitilishiga yoʻl qoʻymaslik; yosh avlodning jismoniy, intellektual, maʼnaviy va axloqiy kamol topishiga koʻmaklashish kabi bu boradagi siyosatning ustuvor yoʻnalishlari belgilab berilgan.

Yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-ning 78-moddasiga asosan,

"Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qatʼi nazar, qonun oldida tengdirlar.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan toʻlaqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir".

Oʻzbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari toʻgʻrisida"gi qonuninig 4-moddasida bola huquqlarini himoya qilish boʻyicha davlat siyosatining asosiy yoʻnalishlari belgilab berilgan:

- bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini taʼminlash;

- bolaning hayoti va sogʻligʻini muhofaza qilish;
- bolaning kamsitilishiga yoʻl qoʻymaslik;
- bolaning shaʼni va qadr-qimmatini himoya qilish;
- bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini taʼminlash;
- bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillash-tirish;

- bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlash;
- bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish bo'yicha davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining ochiqligi hamda oshkoraligini ta'minlash;
- bolalarning jismoniy, intellektual, ma'naviy va axloqiy kamol topishiga ko'maklashish;
- bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- bolalarda vatanparvarlik, fuqarolik, bag'rikenglik va tinchlik-sevarlik tuyg'ularini tarbiyalash;
- bolani O'zbekiston xalqining tarixiy va milliy an'analari, ma'naviy qadriyatlari hamda jahon madaniyati yutuqlari bilan tanishtirish;
- bolaning shaxsini, uning ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorligini rivojlantirish;
- bolalar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash;
- bolada huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish;
- bola huquqlarini ta'minlash maqsadida davlat organlari va no-davlat notijorat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik qilish;
- bola huquqlarini himoya qilish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish;
- bolalarning ijtimoiy ko'nikmasiga, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirishga ko'maklashish.

MUAMMOLAR NIMADA?

Afsuski, ayrim holatlarda bolalarning huquqlari suiiste'mol qilinadi yoki buziladi. Bu tug'ilishdan boshlanishi mumkin. Misol uchun, jahonda taxminan 290 million bolaning tug'ilishi ro'yxatga olinmagan, shuning uchun ularning mavjudligini tasdiqlovchi hujjati yo'q. Bu ularning hayoti davomida o'z huquqlarini talab qilishini deyarli imkonsiz qiladi va yoshi ulg'ayganida maktabga bora olmasli-

gi, tibbiy yordam ololmasligi yoki ish topa olmasligiga sabab bo'ishi mumkin.

Ba'zi mamlakatlarda qizlar huquq va xizmatlardan foydalanishlari uchun atigi 50 foiz imkoniyatga ega. Bolalar, qashshoqlik, to'yib ovqatlanmaslik va zo'ravonlikka duchor bo'lish xavfi yuqori bo'lgan guruhni tashkil qiladi.

Shuningdek, dunyo bo'ylab 61 milliondan ortiq bola boshlang'ich maktabga bormaydi. Har yili taxminan 150 million qiz va 73 million o'g'il bola jinsiy tajovuzga uchraydi. Ba'zi mamlakatlarda to'qqiz yoshga to'lgan qizlar majburan turmushga chiqariladi, olti yoshli bolalar esa jinoiy sudlarda kattalardek hukm qilinadi. Har yili kami-da 330 000 bola muhojir yoki qochoq bo'lgani uchun 80 mamlakatda immigratsiya hibsxonasida saqlanadi, yana ular da ko'pchilik bolalar ota-onadan va oiladan majburan ajratilgandir.

2019-yilda har olti boladan biri o'ta qashshoqlikda yashagan. Bu holat bolalarga nisbatan oiladagi zo'ravonlik, bolalar mehnati, jinsiy ekspluatatsiya, o'smirlar homiladorligi va yosh nikohga olish xavfini oshiradi. COVID-19 pandemiyasi davrida bu raqam sezilarli darajada oshdi.

2020-yilda qariyb 820 million bola maktabda qo'l yuvish vositalariga ega bo'lmagani ularning sog'lig'iga bo'lgan huquqlarini buzgan va infeksiyani yuqtirib olish va tarqalish xavfini oshirgan.

Shu bois dan, jamiyatdagi har bir bola ko'zda tutilgan barcha huquqlarga, hech qanday kamsitishlarsiz, irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy, etnik yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy ahvoli, sog'lig'i va tug'ilishi, uning ota-onasi yoki qonuniy vasiysi yoxud biror-bir boshqa holatlardan qat'i nazar, teng huquqga egadirlar.

II. BOLA HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA MAJBURIYATLARI

YASHASH VA RIVOJLANISH HUQUQI

Yashash huquqi har bir bolaning uzviy huquqidir. Bola hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. Davlat sog'lom bolaning tug'ilishi va rivojlanishini ta'minlash uchun sharoit yaratadi.

Davlatlar bolaning yashashi va sog'lom rivojlanishi uchun mumkin qadar yuqori darajada imkoniyat yaratib beradilar.

O'ZINING INDIVIDUALLIGINI SAQLASH HUQUQI

Har bir bola tug'ilgan paytdan e'tiboran familiya, ism, otasini ismini olish, millati va fuqaroligiga ega bo'lish, shuningdek ularni saqlab qolish huquqiga ega.



SOG'LIQNI SAQLASH HUQUQI

Har bir bola sog'lig'ini saqlash huquqiga ega. Davlat sog'lom bola tug'ilishini ta'minlash uchun onaga uning sog'lig'ini saqlash sharoitlarini yaratadi. Davlat bolalarga qonunchilikka muvofiq hajmda bepul tibbiy yordamni kafolatlaydi.

Bolaning sog'lig'ini saqlash huquqi davlat tomonidan quyidagi yo'llar bilan ta'minlanadi:

- ✓ malakali tibbiy xizmat ko'rsatilishini tashkil qilish;
- ✓ bolaning, uning ota-onasining salomatligini nazorat qilish va bolalar kasalliklarini profilaktika qilish;
- ✓ davolash-profilaktika muassasalarida bolalar va o'smirlarning dispanser kuzatuvini olib borish hamda davolash;
- ✓ talab darajasidagi sifatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi va sotilishini nazorat qilish;
- ✓ bolaning fiziologik xususiyatlari va sog'lig'i holatiga javob beradigan ta'lim olish hamda mehnat qilish sharoitlarini yaratish.



SHAXSIY DAXLSIZLIK, FIKR, VIJDON VA DIN ERKINLIGI HUQUQI

Har bir bola erkinlik, shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Har bir bola o'z sha'ni va qadr-qimmatiga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga g'ayriqonuniy aralashuvlardan himoyalaniish huquqiga ega.

Bola qonunga asoslanmagan holda ushlab turilishi, hibsga olinishi, qamoqqa olinishi mumkin emas.

Shuningdek, bola fikrlash, soʻz, vijdon va eʼtiqod erkinligi huquqiga ega.

Bolaning fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi qonunda belgilangan tartibda cheklanishi mumkin.

ERKIN FIKR BILDIRISH VA MA'LUMOT OLISH HUQUQI

Bola oʻzining fikrini erkin ifodalash huquqiga ega: bu huquq har qanday turdagi axborotni ogʻzaki, yozma yoki bosma shaklda, sanʼat asari koʻrinishida yoki bolaning tanloviga koʻra boshqa vositalar yordamida izlash, olish va uzatish erkinligini oʻz ichiga oladi.

OILA BILAN YASHASH HUQUQI

Har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, oʻz ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning gʻamxoʻrligidan foydalanish huquqiga ega, uning manfaatlariga zid boʻlgan hollar bundan mustasno.

Bolaning ota-onasi boʻlmaganda, ular ota-onalik huquqidan mahrum qilinganda hamda bola ota-ona qaramogʻidan mahrum



bo'lgan boshqa hollarda uning oilada yashash hamda tarbiyalanish huquqi vasiylik va homiylik organi tomonidan ta'minlanadi.

Bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota va onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi.

Ota va ona turli davlatlarda yashagan taqdirda ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

HIMOYAGA BO'LGAN HUQUQ

Har bir bolaga uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining qonunga xilof qarorlari, ular mansabdor shaxslarining g'ayri-qonuniy harakatlari (harakatsizligi) ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish uning ota-onasi, ota-onasining o'rnini bosuvchi shaxslar, qonunda nazarda tutilgan hollarda esa vasiylik va homiylik organi, prokuror, sud hamda Bolalar ombudsmanni tomonidan amalga oshiriladi.

TA'LIM OLISH HUQUQI

Har bir bola bilim olish huquqiga ega. Davlat bolaning bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishini kafolatlaydi.

Avvalo, bolaga ta'lim berish quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi lozim.

- bolaning shaxsi, iste'dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlarini to'la hajmda rivojlantirish;
- inson huquq va erkinliklariga hurmatni tarbiyalash;
- bolaning ota-onaga, bola yashayotgan mamlakatning, u dunyoga kelgan mamlakatning madaniy o'ziga xosligi, tili va milliy qadri-

yatlariga, o'zinikidan farq qiladigan madaniy taraqqiyot darajasiga hurmat bilan qarashni tarbiyalash;

- bolani erkin jamiyatda yashashga, tinchlikka, sabr-toqatli bo'lishga, erkaklar va ayollarning tengligiga hamda barcha xalqlar, etnik, milliy va diniy guruhlar, shuningdek, tub aholi orasidan bo'lgan shaxslar o'rtasida do'stlik ruhida tayyorlash;

- atrof-tabiatga hurmatni tarbiyalash.

DAM OLISH VA O'YNASH HUQUQI

Bola dam olish va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, o'zining yoshiga mos keladigan o'yinlar va ko'ngilochar tadbirlarda ishtirok etish, madaniy hayotda erkin qatnashish, san'at bilan shug'ullanish huquqiga ega.

Davlat bolaning madaniy va ijodiy hayotda har tomonlama qatnashish huquqini hurmat qiladi, rag'batlantiradi hamda madaniy va



ijodiy faoliyat, bo'sh vaqtni o'tkazish va dam olish uchun tegishli teng imkoniyatlar yaratib berilishiga ko'maklashadi.

MEHNAT QILISH HUQUQI

Har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'ining holati va kasbiy tayyorgarligiga muvofiq qonunchilikda belgilangan tartibda mehnat qilish, faoliyat turini va kasbni erkin tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqiga ega.

XUSUSIY MULKKA BO'LGAN HUQUQI

Bola qonunda belgilangan tartibda xususiy mulk huquqiga ega bo'lishi mumkin.

G'AYRIQONUNIY KO'CHIRILISHDAN HIMOYALANISH HUQUQI

Har bir bola g'ayriqonuniy ko'chirilishdan va chet eldan qaytarilmaslikdan himoyalaniş huquqiga ega.

Bolaning chet elga safarlari faqat ota va ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar roziligi bilan qonunchilikka muvofiq amalga oshirilishi mumkin. Ushbu masala bo'yicha ota va ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar o'rtasidagi har qanday kelishmovchilik sud tomonidan hal qilinadi. Ota-ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar bolaning yo'qolganligi haqida tegishli organlarga darhol xabar berishlari shart.

Ota-ona yoki ota-onaning o'rnini bosuvchi shaxslar hamrohligida bo'lmagan bolalar ularning yoniga kafolatli qaytarilish huquqiga ega.

Bolani ota yoki ona yoxud ularning o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan chet davlat hududida nazoratsiz qoldirish, ya'ni ota-onaning, ular o'rnini bosuvchi shaxsning bolaga ta'minot, tarbiya va ta'lim berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashi yoxud hamrohlik qiluvchi shaxsning o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarmasligi yoki lozim darajada bajarmasligi, shu jumladan bolani o'z ota-onasiga yoki yaqin qarindoshlariga yoxud O'zbekiston Respublikasi hududida taqiqlanmagan va tegishli davlatning qonunchiligiga binoan zarur vakolatlarga ega bo'lgan tashkilotga

topshirmasdan qoldirish qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo'radi.

BOLANING MAJBURIYATLARI:

- Konstitutsiya va qonunlarga rioya etish;
- boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish;
- O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylash;
- atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish;
- ota-onaga g'amxo'rlik qilish.

III. INSON HUQUQLARI SOHASIDA TA'LIM

INSON HUQUQLARI SOHASIDA TA'LIM BO'YICHA UMUMIY MA'LUMOT

Inson huquqlari sohasida ta'lim – bu inson huquqlari bo'yicha bilim, ko'nikma va dunyoqarashni shakllantirish orqali inson huquqlari umumiy madaniyatini yaratishga yo'naltirilgan tizimli va maqsadli harakatlar hisoblanadi.

Inson huquqlarini faqat inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni tarqatish orqali amalga oshirish mumkin. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim barcha insonlarni o'z huquqlari va boshqalarning huquqlarini himoya qilishga undaydigan qadriyatlar, e'tiqod va munosabatlarni ilgari suradi. U har bir shaxsning har qanday jamiyatda inson huquqlarini hayotda amalda bo'lishidagi umumiy mas'uliyati haqidagi tushunchani rivojlantiradi.



Inson huquqlari sohasidagi ta'lim va tarbiya boshqalar bilan qonun doirasida muloqotga kirisha olish, o'zgacha nuqtai nazarlarni tinglash va hurmat qilish, o'z fikrini bildirish, nizolarni zo'ra-vonliksiz hal qila olish ko'nikmalarni rivojlantiradi. Istiqbolda inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalangan va demokratik hayotda faol ishtirok etishga tayyorlangan avlodni voyaga yetkazishga katta hissa qo'shadi.

INSON HUQUQLARI SOHASIDA TA'LIM OLISH HUQUQI

Inson huquqlaridan yana biri – ta'lim olish huquqi bo'lib, bu barcha inson huquqlaridan foydalanishga yo'l ochadigan boshlang'ich nuqta.

Ta'lim olish huquqi – inson huquqlari bo'yicha ta'limni hamda ushbu huquqlarni o'rganish, shuningdek jamiyatimizda inson huquqlarini himoya qilish va rag'batlantirish usullari, vositalarini ham o'z ichiga oladi. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim va tarbiya – bu inson hayoti mobaynida davom etadigan va turli yoshdagilarga tegishli bo'lgan jarayon.

BMT Nizomining qabul qilinishi bu sohada muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tarixiy voqeaning mantiqiy davomi sifatida 1948-yil 10-dekabrda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilin-



di. Deklaratsiya inson huquqlarini himoya qilishning rivojlanishida zamonaviy davrni ochib berdi. Ushbu hujjat qabul qilingan sanani inson huquqlari jahon hamjamiyatida yangi maqom va ahamiyat kasb etgan kun deb atash mumkin. O'sha paytdan boshlab insoniyatning inson huquqlari bo'yicha ta'lim sohasini takomillashtirishga kuchli ehtiyoj paydo bo'ldi.

Ushbu deklaratsiyaning 26-moddasida: "Har bir inson ta'lim olish huquqiga ega. Ta'lim olish, hech bo'lmaganda, boshlang'ich va umumiy ta'lim tekin bo'lishi lozim. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lishi kerak. Texnik va kasbiy ta'lim hammaning imkoni yetadigan bo'lishi, oliy ta'lim esa har kimning qobiliyatiga asosan hamma uchun bir xil imkoniyat darajasida bo'lishi kerak. Ta'lim inson shaxsining to'liq rivojlanishiga hamda inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni oshirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Ta'lim barcha xalqlar, irqiy va diniy guruhlar o'rtasidagi hamjihatlik, sabr-toqatlilik va do'stlikka hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining tinchlikni saqlash bo'yicha faoliyatiga ko'maklashishi lozim. Ota-onalar kichik yoshdagi bolalari uchun ta'lim turini tanlashda ustuvorlik huquqiga egadir", – deb belgilab qo'yilgan.

Inson huquqlari sohasida ta'lim haqidagi qoidalar ko'plab xalqaro hujjatlarga kiritilgan bo'lib, ushbu standartlarni belgilash jarayoni 2011 yilda BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasi qabul qilinishi bilan yakunlandi.

BMTning Inson huquqlari sohasida ta'lim va tarbiya to'g'risidagi deklaratsiyasida aytiladiki:

- har bir shaxs hamda tashkilot ma'rifat va ta'lim orqali inson huquqlari va asosiy erkinliklarini hurmat qilishga ko'maklashishi kerak;

- har bir inson ta'lim olish huquqiga ega va ta'lim inson shaxsi va qadr-qimmatini har tomonlama rivojlantirishga, barcha shaxslarga erkin jamiyatning foydali ishtirokchisi bo'lishiga imkon berishga va barcha millatlar va irqiy, etnik yoki diniy guruhlar o'rtasida o'zaro tushunish, bag'rikenglik va do'stlikni rivojlantirishga ko'maklashishi lozim.

IV. XALQARO TASHKILOTLAR VA HUJJATLAR

BMT

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) – yer yuzida tinchlikni mustahkamlash va xavfsizlikni ta’minlash, davlatlarning o’zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan xalqaro tashkilot. Birlashgan Millatlar Tashkiloti hozirgi vaqtda 193 davlatni birlashtirgan. Katta va kichik, boy va kambag’al davlatlar, turli siyosiy qarash va tuzilmaga ega mamlakatlar BMT a’zolari bo’lishi mumkin, ularning barchasi ovoz berish va bu jarayonda ishtirok etish huquqiga ega.

BMT 1945-yil 24-oktabrda tuzilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining maqsad va faoliyati BMT Ustavida bayon etilgan maqsad va prinsiplar asosida belgilanadi. Ustavda BMTning tuzilishi hamda mojaro va nizolarni hal qilishning asosiy tamoyillari mustahkamlangan. E’tiborlisi shundaki, BMT Ustavi inson huquqlarini himoya qiluvchi ilk xalqaro hujjat bo’lib, jahon miqyosida qo’llab-quvvatlovga erishdi. Uning inson huquqlari to’g’risidagi qoidalar uch yil o’tib, 1948 yili Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o’z aksini topdi.

1994-yilda BMT Bosh Assambleyasi 1995–2004 yillarni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo’yicha ta’lim o’n yilligi deb e’lon qildi.

2004 yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan Inson huquqlari sohasidagi jahon ta’lim dasturi e’lon qilingan. Hozirgi vaqtgacha ushbu dasturning quyidagi uchta bosqichi amalga oshirildi:

birinchi bosqich: 2005-2009 yillar – maktablarda inson huquqlari sohasidagi ta’lim jarayonlarini qamradi;

ikkinchi bosqich: 2010-2014 yillar – oliy ta’lim tizimi, shuningdek o’qituvchi-murabbiylar va davlat xizmatchilari uchun inson huquqlari sohasidagi ta’limga bag’ishlandi;

uchinchi bosqich: 2015-2019 yillar – ommaviy axborot vositalari vakillariga inson huquqlari sohasida ta'lim berildi.

to'rtinchi bosqich: 2020-2024 yillarda amalga oshirilmoqda. Yangi bosqich inson huquqlari sohasida ta'lim berish orqali yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan.

Inson huquqlari sohasidagi jahon ta'lim dasturi barcha davlatlar va tashkilotlarni inson huquqlarini ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga fan sifatida o'rganish uchun kiritishni nazarda tutadi.

YUNESKO

YUNESKO – bu BMTning ixtisoslashlgan muassasi bo'lib, davlatlar o'rtasida maorif, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan tinchlikka va xalqaro xavfsizlikka ko'maklashish maqsadida 1945 yilda tuzilgan. Tashkilot ustaviga ko'ra, «... irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmatni ta'minlash maqsadida ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga» ko'maklashish tashkilotning ustuvor vazifasidir.

YuNESKO tashkil topganidan faoliyatining ustuvor yo'nalishlari ta'lim hamda inson huquq va erkinliklariga hurmatni ta'minlash hisoblanadi. YuNESKO inson huquqlari sohasidagi ta'lim bo'yicha milliy strategiyalarini ishlab chiqishga muhim hissa qo'shadi, o'quv materiallari ishlab chiqaradi hamda inson huquqlarini himoya qilish va hamkorlik sohasida ishlaydi.

YUNISEF

YUNISEF – yetmish olti yildan beri bolalar huquqlarini himoya qiluvchi tashkilot. Bugungi kunda uning vakillari dunyoning 191 mamlakatida mavjud. U BMT agentliklari, hukumatlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va mahalliy tashkilotlar bilan hamkorlikda har bir bolaning huquqlari ro'yobga chiqadigan dunyoni qurishga yordam beradi.

YUNISEF faoliyati Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga asoslanadi. YUNISEF xalqaro, mintaqaviy va alohida mamlakatlarda

inson huquqlari bo'yicha ta'limni davom ettirishga hissa qo'shadigan ko'plab dasturlarga ega. Jumladan, "Yoshlar ovozi" dasturi doirasida veb-sayt orqali global miqyosdagi bolalar hayotiga oid savollar va bolalar huquqlarini targ'ib qilish uchun interfaol o'yinlar haqida ma'lumot beriladi.

XALQARO SHARTNOMALAR VA HUQUQIY HUJJATLAR

BMT doirasida inson va bola huquqlari sohasida qanday fundamental xalqaro shartnomalar va boshqa xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilingan?

- ✓ 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi;

- ✓ 1965-yilda qabul qilingan Irqiy kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi xalqaro konvensiya;

- ✓ 1966-yilda qabul qilingan Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt;

- ✓ 1966-yilda qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt va uning birinchi Fakultativ bayonnomasi; 1989-yilda qabul qilingan uning ikkinchi Fakultativ bayonnomasi;

- ✓ 1979-yilda qabul qilingan Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya;

- ✓ 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya;

- ✓ 2006-yilda qabul qilingan Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya.

BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasiga uchta qo'shimcha Fakultativ bayonnomalar (protokollar) mavjud:

- ✓ Bolalarning qurolli mojarolarga jalb qilinishiga taalluqli Fakultativ bayonnomasi (2000);

- ✓ Bolalar savdosi, bolalar fohishabozligi va bolalar pornografiyasiga taalluqli Fakultativ bayonnomasi (2000);

- ✓ Xabarnoma tartibiga taalluqli protokol (2011).

Milliy qonunchilik hujjatlari

- ✓ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- ✓ Oila kodeksi;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarini kafolatlarini ta’minlash to‘g‘risida”gi qonuni;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasining “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuni.
- ✓ O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni;
- ✓ O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni.



V. BOLALAR OMBUDSMANI

Davlatning bola huquqlarini himoya qilishni ta'minlash funksiyasi Bola huquqlari bo'yicha vakil faoliyatida aks etadi. Bugungi kunda bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash maqsadida dunyoning saksonga yaqin mamlakatlarida Bolalar ombudsmeni faoliyat yuritadi. Ularning asosiy vazifasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarini qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha'ni, qadr-qimmatini, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga butun jamiyat va davlatni faol jalb etishdan iborat.

Bola huquqlari bo'yicha ombudsman yoki vakil lavozimi birinchi bo'lib Norvegiyada 1982-yilda ta'sis etilgan. Shvetsiyada esa bunday tashkilot 1993-yilda faoliyat boshlagan. Hozirgi kunda dunyoning ko'plab mamlakatlarida bolalar bo'yicha ombudsman instituti mavjud. Jumladan, Yevropada (Avstriya, Belgiya, Germaniya, Daniya, Islandiya, Ispaniya, Lyuksemburg, Rossiya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvetsiya) va Lotin Amerikasida (Gvatemala, Kolumbiya, Kosta-Rika, Peru), shuningdek Kanada, Isroil va Yangi Zelandiyada bolalar ombudsmeni faoliyat ko'rsatmoqda. Bolalar ombudsmanining tashkil etilishi BMTning Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini nazorat qilishni tashkil qilishning ajralmas qismidir.

Bolalar huquqlari to'g'risidagi konvensiya BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan. 1992-yil 9-dekabrda mazkur Konvensiya O'zbekiston tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu hujjat orqali O'zbekiston Konvensiya qoidalariga rioya etish, bola huquqlarini himoya qilishning milliy qonunchilik tizimini takomillashtirish bo'yicha majburiyatlarni hamda jahon hamjamiyati oldida javobgarlik masalasini o'z zimmasiga oldi. Mamlakatimizda bu yo'nalishda o'tgan yillarda izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmok-



da. Ayniqsa, soʻnggi yillarda jamiyatimizning boshqa sohalari kabi bu jabhadagi ishlar ham yangi bosqichga koʻtarildi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-apreldagi “Bola huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qaroriga muvofiq, Bola huquqlari boʻyicha vakil (Bolalar ombudsmani) lavozimi joriy etilishi natijasida mamlakatimizda bola huquqlari himoyasining tashkiliy asoslari yanada mustahkamlandi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-maydagi “Bola huquqlarini himoya qilish tizimini



takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida Bola huquqlari bo'yicha vakilning asosiy vazifalari va faoliyati yo'nalishlari belgilandi. Bolalar ombudsmani – O'zbekistonda bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan tashkilot.

Bolalar ombudsmanining asosiy vazifasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarini qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha'ni, qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga butun jamiyat va davlatni faol jalb etishdan iborat.

Bolalar ombudsmani o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslariga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi, o'z faoliyatida Oliy Majlis palatalariga hisobdordir. Bolalar ombudsmani Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi.

Bolalar ombudsmani – O'zbekistonda bolalarning huquqlarini himoya qilish, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha faoliyat ko'rsatadigan tashkilot.

Bolalar ombudsmanining asosiy vazifasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarini qonunchilikka tatbiq etish, bolaning shaxsi, sha'ni, qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga butun jamiyat va davlatni faol jalb etishdan iborat.

Bolalar ombudsmani o'z vakolatlarini mustaqil hamda davlat organlari, ularning mansabdor shaxslariga tobe bo'lmagan tarzda amalga oshiradi, o'z faoliyatida Oliy Majlis palatalariga hisobdordir. Bolalar ombudsmani Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati tomonidan besh yil muddatga saylanadi.

VI. BOLALARGA HUQUQLARINI O'RGATISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Bolalarga huquqlarini o'rgatish uchun qo'shiqlar, hikoyalar, o'yinlar, fotosuratlar, qo'g'irchoqlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli usullar qo'llaniladi.

Bunda interfaol ta'lim usullaridan foydalanib, bolalar bilan interfaol suhbatlar, bahs-munozaralar, aqliy hujum, rolli o'yinlar tashkil qilish mumkin.

ROLLI O'YINLAR

Bolalarga o'yin orqali ko'plab jiddiy narsalarni o'rgatish mumkin. Bolalar har doim zavq bilan o'ynashadi. O'yinda ular yangi ijtimoiy rollarni o'zlashtiradilar, o'zlarini anglaydilar, yangi ijtimoiy tajribaga ega bo'ladilar, "men" obrazining yangi qirralarini shakllantiradilar va rivojlantiradilar. O'yin bolani yangi ijtimoiy munosabatlarga jalb qiladi.

RASM CHIZISH

Rasm chizish inson huquqlarini o'rgatishda foydalidir, chunki ishtirokchilarning ishlari maktabgacha ta'lim muassasasi ko'rgazmasida namoyish etilishi mumkin, bu esa bolalarga ko'proq inson huquqlari tushunchalari bilan tanishish imkoniyatini beradi.

Masalan, bolalarga inson huquqlari, erkinliklari va burchlari to'g'risidagi tasavvurlarini rasmlarda chizishni taklif qilish mumkin. Shuningdek, berilgan mavzu bo'yicha multfilmlar va komikslar tanlovini o'tkazish mumkin.

VIDEOLARNI TOMOSHA QILISH VA MUHOKAMA QILISH

Bolalar ma'lumotni video orqali olishsa, yaxshiroq eslab qolishadi. Inson huquqlariga oid videolarni tomosha qilish uchun bir qancha tavsiyalar mavjud.

Filmini tasavvur qiling. Iloji bo'lsa, ishtirokchilarning diqqatini muhim nuqtalarga qaratib.

Ayniqsa, his tuyg'uli filmdan so'ng, baham ko'rish mashqlarini bajaring. Filmدا ko'tarilgan masalalar bo'yicha suhbat olib borishni taklif qiling.

VII. BOLALAR UCHUN QIZIQARLI MASHQLAR

GO'ZAL OLAM

Siz qanday olamda yashashni xohlaysiz?

KO'RSATMA:

- Turli xil ranglarni joylashtiring. Bolalardan haqiqiy yoki xayoliy o'zlari taassavur qiladigan atrof muhit haqida o'ylashni va uni chizishlarini so'rang.
- Keyin bolalardan o'zlari yoqtirmaydigan atrof-muhit haqida o'ylashni va uning rasmini chizishlarini so'rang.
- Rasmlar tayyor bo'lgach, ularni osib qo'ying va bolalarni mini-ko'rgazmani ko'rishga taklif qiling.

TAHLIL VA BAHOLASH

Quyidagi savollarni berish orqali o'yinni tahlil qiling:


- a. Ikki xil atrof-muhit haqida o'ylash osonmi?
- b. Qaysi rasm va qaysi muhit sizga ko'proq yoqadi? Nega?
- c. Qaysi rasm va atrof-muhit sizga kamroq yoqadi? Nega?
- d. Qaysi rasmdagi atrof-muhit sizning haqiqiy muhitingizga mos keladi?

Quyidagi kabi savollarni berish orqali inson huquqlari bilan bog'liqligini ko'rsating:

- a. Siz yashayotgan joydagi atrof-muhitni qanday tavsiflagan bo'lardingiz?
- b. Dunyodagi barcha bolalarning o'zlari yoqtiradigan muhiti bormi?
- c. Bizning yaxshi muhitda yashashga huquqimiz bormi?
- d. Dunyodagi barcha bolalar uchun atrof-muhitni yaxshilash uchun nima qilishimiz mumkin?

RASMLAR ORQALI HUQUQLARNI ANGLASH

Har bir rasm qanday huquqni anglatishini bolalarga tushuntiring va huquqlarni tahlil qiling!



Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma. Ushbu hujjat nima va u qanday huquqni eslatadi?

(Ism va familiyaga bo'lgan huquq)



Quyosh sizga qanday huquqni eslatadi?

(Dam olish va o'ynash huquqi)



Yurak qanday huquqni anglatishi mumkin?

(G'amxo'rlik va mehr-oqibatga bolgan huquqi)



Uy nima haqida gapiryapti?
(Mulk huquqi)



Bolakay sizga qanday
huquqni eslatdi?
(Bilim olish huquqi)



Quyvon va quyvonchalar – bu
nimani eslatadi?
(Bolaning onasi bilan bo'lish
huquqi)



Oila rasmi – bolaning oilaviy
munosabatlarga bo'lgan huquqi

AQLIY MASHQLAR

Rasmlarda keltirilganlaridan ortiqchasini dumaloq ichiga oling!

1-rasm



2-rasm



Bolaning oilada yashash va tarbiyalanish huquqi

Barcha oila a'zolarini yoshga qarab tartiblang!



Sog'liqni saqlash huquqi

Agar siz to'satdan kasal bo'lib qolsangiz, sizga kim yordam beradi?
Rasmlar orasidan to'g'ri berilgan kasbni toping.



Qaysi harakatlar yaxshi va qaysi harakatlar yomon?





Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi: (rasmlarda). – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 1998.
2. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2005.
3. Hamma gap imkoniyatda: nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiya qoidalarininng talqini [maktab va boshqa o'quv muassasalari uchun]. – T.: Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2015.
4. Mo'minov A., Tillabaev M., Yuldasheva G. Bola huquqlari. – T.: TDYU, 2019.
5. Копмасито пособие по обучению детей правам ребенка <http://www.eycb.coe.int/compasito/ru/>
6. Права ребёнка в учебном процессе // Датский институт по правам человека, 2007.
7. Права ребенка: пособие для родителей: ЮНИСЕФ для каждого ребенка. – Минск: Альтиора Форте, 2021. – 30 с
8. Bolalarni himoya qilish. Parlament a'zolari uchun qo'llanma. – T.: YUNISEF, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006.

Foydali havolalar

9. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi sayti: www.insonhuquqlari.uz
10. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) sayti: www.ombudsman.uz
11. BMT sayti: www.un.org
12. YUNISEF sayti: www.unicef.org
13. Bola huquqlari portali: www.bolahuquqlari.uz

BOLA HUQUQLARI

(MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARINING
PEDAGOG XODIMLARI UCHUN
USLUBIY QO'LLANMA)

Muharrir A. Ramazonov
Texnik muharrir L. Ruzikulova
Sahifalovchi A. Jumaniyazov

Chop etishga 2023-yil 10-avgustda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108^{1/32}
«PT Serif» garniturasida ofset usulda bosildi.
Shartli bosma tabog'i 1,9. Nashr tabog'i 3,7.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 14.

Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazida chop etildi.
100029, Toshkent, Islom Karimov ko'chasi, 15.